

**XORIJIY DAVLATLARDAGI POLITSIYA ORGANLARINI OMMAVIY
TADBIRLARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDAGI Tajribalari Tahlili**

Nasirov Xurshid Rustamovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21625750>

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlangan xorijiy davlatlarning politsiya va huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan ommaviy tadbirlar jarayonida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqot doirasida Yevropa (Buyuk Britaniya, Germaniya) va Osiyo (Janubiy Koreya, Yaponiya) mamlakatlarining ommaviy yig'ilishlarni boshqarish modellari, ulardagi huquqiy tartibga solish mexanizmlari hamda politsiya xodimlarining taktik harakatlari o'rganilgan.

Xususan, xorijiy tajribadagi "risklarni oldindan baholash" (risk assessment), tadbir ishtirokchilari bilan muloqotga kirishishning "yumshoq" (soft approach) usullari hamda raqamli texnologiyalar (sun'iy intellekt, dronlar, intellektual videokuzatuv) orqali vaziyatni nazorat qilish amaliyoti yoritilgan. Maqolaning yakunida xorijiy tajribaning ijobiy jihatlarini milliy qonunchilik va huquqni muhofaza qilish tizimiga adaptatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy tajriba, politsiya organlari, ommaviy tadbirlar, qiyosiy tahlil, risk-menejment, aqlli politsiya (smart policing), jamoat xavfsizligini boshqarish, tezkor taktikalar.

Globalashuv va urbanizatsiya jarayonlari o'z navbatida dunyo miqyosida ommaviy tadbirlar – madaniy, sport va siyosiy xarakterdagi yirik loyihalar soni va ko'lamining keskin oshishiga olib keldi. Bunday tadbirlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun katalizator vazifasini o'tashi bilan birga, jamoat xavfsizligiga oid yangi turdagi xatar va tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari ommaviy tadbirlarni boshqarishda "kuch ishlatish" paradigmasidan "vaziyatni boshqarish va xavflarni yumshatish" paradigmasiga o'tmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlash nafaqat politsiyaning jismoniy nazorati, balki zamonaviy texnologiyalar, sotsiologik yondashuvlar va idoralararo kompleks hamkorlik uyg'unligiga asoslangan. Masalan, Buyuk Britaniyada tadbirlarni rejalashtirishda "plyuralistik yondashuv" (barcha manfaatdor tomonlar ishtiroki), Janubiy Koreyada esa raqamli monitoring tizimlari va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilidan foydalanish amaliyoti dunyoda eng samarali modellardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tajribalarni o'rganish O'zbekiston huquq-tartibot organlari uchun o'z tizimini yanada takomillashtirish, xodimlar malakasini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi bugungi kunda jahon miqyosida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Turli davlatlar o'z milliy xavfsizlik konsepsiyalarida ommaviy yig'ilishlar, madaniy, sport, siyosiy va diniy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishmoqda. Bu jarayonda ichki ishlar organlari yoki ularning funksiyalarini bajaruvchi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar yetakchi rol o'ynaydi.

Xususan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlar tajribasi alohida ahamiyatga egadir.

AQSHda ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan yuqori darajadagi muvofiqlashtirilgan tizim shakllangan. Bu jarayonda asosiy subyektlar sifatida mahalliy politsiya, Department of Homeland Security (DHS), Federal Emergency Management Agency (FEMA), shuningdek, AQSH Markaziy razvedka boshqarmasi (CIA) va boshqa maxsus xizmatlar ishtirok etadi. Ular har bir yirik ommaviy tadbir oldidan taktik va strategik rejalarini ishlab chiqishadi, xavf tahlili o'tkaziladi va real-time monitoring tizimlari faollashtiriladi.

Xususan, "Urban Shield"¹ – bu San-Fransisko shahrida amalga oshiriladigan yillik simulyatsiyali mashg'ulot bo'lib, u politsiya, qutqaruv xizmati, tez yordam va favqulodda xizmatlarining hamkorlikdagi tayyorgarligini baholashga qaratilgan (City and County of San Francisco, Office of Emergency Management, 2022). "Mass Gathering Public Health Emergency Planning Guide" (CDC, 2014) esa ommaviy tadbirlarda sog'liqni saqlash xavflariga qarshi tayyorgarlik ko'rishda asosiy me'yoriy hujjat sifatida xizmat qiladi.

AQSH amaliyotida tadbirga tayyorgarlik ko'rish jarayonida "Incident Command System" (ICS) doirasida vazifalar taqsimlanadi va "National Incident Management System" (NIMS) asosida fuqarolar, tashkilotlar va hukumatlar o'rtasidagi hamkorlik ta'minlanadi. Bu model O'zbekistondagi amaldagi boshqaruv tizimiga nisbatan yanada aniq vazifalashtirilgan va markazlashtirilgan harakatni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, AQSHda ommaviy tadbirlarda favqulodda vaziyatlarga javob qaytarish uchun "Fusion Centers" - ya'ni idoralararo ma'lumot almashinuv markazlari faoliyat yuritadi.

Ular milliy va mahalliy darajada tahdidlar haqida axborotni yig'ish, tahlil qilish va tarqatish bilan shug'ullanadi².

Qiyosiy tahlil nuqtayi nazaridan qaralganda, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ham ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlashda yetakchi organ hisoblanadi. Biroq, AQSH amaliyotidan farqli o'laroq, O'zbekistonda milliy va mahalliy darajadagi munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda ma'lumot almashishda yagona real vaqtli axborot tizimi to'liq joriy etilmagan. Shu bois, AQSHdagi "Fusion Center" kabi markazlashgan ma'lumot almashish platformasini O'zbekiston amaliyotiga joriy etish mumkin.

¹ *Ma'lumot uchun:* "Urban Shield" – bu AQShning San-Fransisko shahrida tashkil etiladigan yillik keng ko'lamli simulyatsiyali mashg'ulotlar dasturi bo'lib, uning asosiy maqsadi – turli favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni oshirish va huquq-tartibot hamda qutqaruv tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdir. *"Urban Shield" tashkilotchilari:* San-Fransisko okrugi Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (Office of Emergency Management), Homeland Security, FEMA va boshqa federal idoralar. *Maqsadi:* Terrorchilik, tabiiy ofatlar, ommaviy shikastlanish holatlari va boshqa xavfli vaziyatlarda politsiya, qutqaruv xizmati, tibbiy tez yordam, bombalarga qarshi guruhlar, SWAT va boshqa tuzilmalarning birgalikdagi harakat qobiliyatini sinash. *Xususiyati:* Mashg'ulotlar 48 - 72 soat davom etadi va real ssenariylar asosida tashkil etiladi (masalan, ommaviy otishmalar, portlash, zilziladan keyingi qutqaruv va evakuatsiya). Bu mashg'ulotlarda multi-agency interoperability, ya'ni idoralararo uyg'unlik alohida baholanadi. *Istirokchilari:* Politsiya, o'tish xavfsizligi, FBI, FBI SWAT, tez tibbiy yordam, yong'in xizmati va hatto kiberxavfsizlik bo'limlari. *Manbalari:* San Francisco Urban Shield Program Reports, Office of Emergency Services. Homeland Security Exercise and Evaluation Program (HSEEP), DHS.gov. "Urban Shield After Action Report" (2018), Alameda County Sheriff's Office.

² <https://www.congress.gov/congressional-report/116th-congress/house-report/458/1>.

Shuningdek, AQSH tajribasidagi yana bir ijobiy jihat – bu simulyatsiyali mashgʻulotlarni doimiy oʻtkazish tizimi. Mazkur usul Oʻzbekistonda ham ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida muntazam ravishda joriy etilishi maqsadga muvofiq.

AQSH tajribasidagi simulyatsiyali mashgʻulotlarni doimiy oʻtkazish tizimini Oʻzbekistonda ham ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida muntazam ravishda joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Oʻzbekiston uchun “Urban Shield” modeli asosida quyidagi konseptual taklifni ilgari surishimiz mumkin:

- “OʻzShield” nomi ostida har yili umumrespublika simulyatsiyali mashgʻulotlar dasturini joriy etish;

- IIV, FVV, Milliy gvardiya, tez yordam, sanitariya xizmati, mahalliy hokimiyat va OAV ishtirokidagi oʻzaro hamkorlikni real ssenariylarda sinash;

- 48 soatlik mashgʻulot davomida real-time axborot almashinuv, dispetcherlash, evakuatsiya va tahdidlarga javobni modellashtirish;

- ishtirokchilar faoliyatini maxsus ball tizimi asosida baholash va yillik hisobotlar tayyorlash;

- “Urban Shield” tajribasidagi kabi ommaviy axborot va aholi oʻrtasidagi jamoatchilik muloqotini taʼminlash.

Darhaqiqat, AQSHdagi federal va mahalliy organlar oʻrtasidagi hamkorlik, maxsus huquqiy va metodik hujjatlar, axborot tizimlari va taktik mashgʻulotlarga asoslangan yondashuv – Oʻzbekiston Ichki ishlar organlari uchun ilgʻor tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin. Buning uchun, “National Incident Management System”ga oʻxshash milliy standart joriy etish, “Fusion Center” modelini yaratish, har yillik yirik mashgʻulotlarni joriy etish, jamoatchilik ishtirokini taʼminlovchi ommaviy axborot kompaniyalarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

Germaniyada ommaviy tadbirlar xavfsizligini taʼminlash sohasida mustahkam huquqiy va tashkiliy asos yaratilgan. Bu jarayonda “Versammlungsgesetz” – Yigʻilishlar toʻgʻrisidagi qonun³ asosiy rol oʻynaydi. U mitinglar, namoyishlar, koʻcha yurishlari kabi ommaviy tadbirlarni oʻtkazish tartibini belgilaydi, shuningdek, ishtirokchi subyektlarning majburiyatlari va javobgarligini aniq qonuniy asosda tartibga soladi.

Germaniyadagi muhim jihatlardan biri – har qanday ommaviy tadbir oldidan institutsional simulyatsiya mashgʻulotlari oʻtkazilishi hisoblanadi. Bundesliga futbol oʻyinlari, bayramlar, namoyishlar kabi yirik tadbirlar oldidan Polizei (politsiya), Feuerwehr (yongʻin xizmati), Rettungsdienst (tez tibbiy yordam) va sanitar organlar ishtirokida maxsus simulyatsiyalar amalga oshiriladi. Bu mashgʻulotlar “Kompetenzzentrum Öffentliche Sicherheit” - Jamoat xavfsizligi kompetensiya markazi⁴ tomonidan rejalashtiriladi va muvofiqlashtiriladi.

“Kompetenzzentrum Öffentliche Sicherheit”ning vazifalari qatorida: xavf tahlili va ssenariylar ishlab chiqish; taktik-kordinatsion rejalar tuzish; favqulodda vaziyatlar boshqaruvini sinovdan oʻtkazish; idoralararo maʼlumot almashish platformalarini ishlab chiqish; ishtirokchi organlar oʻrtasidagi muvofiqlashuvni taʼminlash mavjud.

³ BBl 2001 3621. Bundesgesetz über die Bundesversammlung (Parlamentsgesetz, ParlG) // <https://www.fedlex.admin.ch/eli/fga/2001/640/de>.

⁴ Bundesamt für Bevölkerungsschutz und Katastrophenhilfe, 2020.

Germaniyadagi muhim hujjatlardan biri - “Handbuch für Veranstaltungen mit besonderen Sicherheitsanforderungen” (2022)⁵, ya’ni yuqori xavfli tadbirlarni tashkil etish bo’yicha qo’llanma bo’lib, u Bavariya politsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu hujjatda ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonining har bir bosqichi - xabar berish, ssenariy tahlili, kuch va vositalarni joylashtirish, evakuatsiya rejasi, aholi va OAV bilan ishlash kabi aspektlar to’liq yoritilgan.

O’zbekistonda ham Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi 569-sonli qarori⁶ orqali ommaviy tadbirlarda ishtirok etuvchi tuzilmalarning vazifalari belgilab berilgan. Ammo, Germaniyadagi kabi aniq taktik-kordinatsion rejalar, har bir tadbirga individual yondashuv va hatto maxsus kompetensiya markazi hali tashkil etilmagan. Germaniyada barcha tuzilmalar o’rtasida real-time ma’lumot almashish, favqulodda vaziyat ssenariylari asosida harakat algoritmlarini sinovdan o’tkazish, davlat va mahalliy hokimiyat darajasida muvofiqlashtirilgan platformada ishlash tizimlashgan holda amalga oshiriladi.

O’zbekistonda Germaniya tajribasi asosida quyidagilarni joriy etish ijobiy natija beradi.

Xususan:

- “Kompetenzzentrum”ga o’xshash Jamoat xavfsizligi taktik-tahlil markazini tashkil etish;
- har bir yirik tadbir oldidan Polizei va Feuerwehr kabi tuzilmalarning ishtirokidagi simulyatsiyali mashg’ulotlarni joriy etish;
- “Handbuch für Veranstaltungen”-ga o’xshash milliy qo’llanma ishlab chiqish va uni ommaviy tadbirlarni tashkil etishda asosiy hujjat sifatida tasdiqlash;
- simulyatsiya va tahlil asosida har bir ommaviy tadbir uchun maxsus taktik-kordinatsion reja tuzish;
- respublika va hududiy miqyosda ma’lumot almashish platformasini yaratish.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, Germaniya tajribasi yuqori darajadagi huquqiy aniqlik, institutsional hamkorlik va ssenariyga asoslangan simulyatsiya orqali ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta’minlashda kompleks yondashuvni amalga oshiradi. Bu tajriba O’zbekistondagi ichki ishlar organlari faoliyatini yanada modernizatsiya qilish uchun qimmatli ilg’or yechimlar taqdim etadi.

Buyuk Britaniyada jamoat xavfsizligini ta’minlashda “community policing” – ya’ni jamoatchilik bilan hamkorlikdagi politsiya faoliyati alohida o’rin tutadi. Bu modelga ko’ra, politsiya faqat huquqbuzarliklarga javob beruvchi emas, balki jamoat bilan doimiy muloqotda bo’luvchi va fuqarolar ishonchini qozonadigan subyekt sifatida qaraladi.

Ommaviy tadbirlar jarayonida Buyuk Britaniyada “Gold-Silver-Bronze Command Structure” (GSB)⁷ - uch bosqichli boshqaruv tizimi keng qo’llaniladi.

⁵<https://shop.lexisnexis.at/sicherheit-fuer-versammlungsstaetten-und-veranstaltungen-978341505-9566.html>.

⁶ O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-sentabrdagi 569-sonli “Ommaviy tadbirlarni o’tkazishda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va yuzaga kelishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga doir chora-tadbirlarni kuchaytirish to’g’risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.09.2024 y., 09/24/569/0714-son // <https://www.lex.uz/docs/7102947>.

⁷ *Маълумот учун*: “Gold-Silver-Bronze” — Buyuk Britaniyada ommaviy tadbirlar, favqulodda holatlar va jamoat xavfsizligi masalalarida qo’llaniladigan ierarxik boshqaruv modeli bo’lib, u idoralararo muvofiqlashuv va tezkor qaror qabul qilishni ta’minlashga qaratilgan. **Bu tizimdagi rollar**: *Gold Commander* — strategik daraja: umumiy strategiyani belgilaydi, barcha idoralar faoliyatini muvofiqlashtiradi, hukumat va jamoat bilan siyosiy/ijtimoiy muloqotni ta’minlaydi. *Silver Commander* — taktik daraja: Gold topshiriqlarini amalga oshirish uchun aniq taktik rejalar tuzadi, bir necha Bronze guruhlarini muvofiqlashtiradi, uskunalar, kuch va vositalarni taqsimlaydi. *Bronze*

Ushbu tizimda “Gold Commander” strategik qarorlarni qabul qiladi, “Silver Commander” taktik boshqaruvni amalga oshiradi, “Bronze Commander” esa muayyan vazifalarni joylarda bajaradi. (GSB modeli vizual iyerarxiyasi 1-jadvalda)

1-jadval.

Daraja	Nomi	Vazifasi
1	Gold Commander	Strategik qarorlar, umumiy boshqaruv va siyosiy munosabatlar
2	Silver Commander	Taktik rejalashtirish, bir necha guruhlarini muvofiqlashtirish
3	Bronze Commander	Joylardagi aniq vazifalar, patrul, evakuatsiya, javob choralari

Buyuk Britaniyaning asosiy normativ hujjatlaridan biri “Public Order Act 1986”⁸ bo‘lib, u ommaviy tadbirlardagi politsiyaning harakatlarini tartibga soladi, namoyishlarni tashkil etish shartlari, javobgarlik va jamoat xavfsizligini ta’minlash mexanizmlarini belgilaydi.

“Community policing” modelega ko‘ra, ommaviy tadbirlar paytida jamoat bilan doimiy axborot almashinuvi ta’minlanadi. Politsiya xodimlari fuqarolar bilan muloqot qilish, tushuntirish, ishonch uyushtirish orqali konfliktlarni oldini oladi. Masalan, “London Metropolitan Police” tomonidan tashkil etilgan “Neighbourhood Policing Teams” har bir tadbir oldidan mahalliy jamoa bilan uchrashuvlar o‘tkazib, xavotirlar, takliflar va ehtiyojlarni o‘rganishadi⁹.

Buyuk Britaniyada ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida mahalliy hokimiyat, NHS (sog‘liqni saqlash xizmati), London Ambulance Service, Fire Brigade, jamoatchilik tuzilmalari va OAV bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Har bir tadbir uchun “Event Safety Management Plan” ishlab chiqiladi. Bu rejada evakuatsiya yo‘nalishlari, patrul va nazorat nuqtalari, sanitariya xizmatlari, hamda favqulodda vaziyatlardagi javob choralari o‘z aksini topadi.

O‘zbekistonda ichki ishlar organlari asosan jamoat tartibini saqlash va favqulodda vaziyatlarga javob berishga yo‘naltirilgan. Biroq “community policing” modelidagi kabi jamoa bilan ishonchli aloqa, fuqarolarning xavfsizlik jarayonidagi faol ishtiroki hozircha keng tarqalmagan. “Gold-Silver-Bronze” kabi iyerarxik va funksional rahbarlik modeli ham aniq tartibga solinmagan.

Buyuk Britaniyaning ilg‘or tajribasini O‘zbekiston tajribasiga tatbiq etish bo‘yicha quyidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

- “Community Policing” konsepsiyasini normativ-huquqiy asosda qabul qilish va IIV tizimida maxsus bo‘lim tashkil etish;
- “Gold-Silver-Bronze” modeli asosida ommaviy tadbirlarda strategik, taktik va operativ rahbarlikni ajratish;

Commander — operativ daraja: maydondagi joriy harakatlarni tashkil etadi, evakuatsiya, nazorat, tartib va tibbiy xizmatni tashkillashtiradi (National Police Chiefs’ Council (NPCC), UK – Incident Command System Guidance for Major Events, 2020).

Agar bu tizim O‘zbekistonda ham joriy etilsa: Har bir ommaviy tadbirda mas’uliyatli shaxslar vazifasi aniqlanadi; Jamoat tartibini saqlashda idoraviy chalkashliklar kamayadi; Favqulodda vaziyatlarda tezkor va uyg‘un boshqaruv ta’minlanadi.

⁸ <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1986/64>.

⁹ Metropolitan Police Service, 2021.

- har bir yirik tadbir oldidan jamoat bilan uchrashuvlar, jamoatchilik kengashlari orqali muloqot va tahlil o'tkazish;
- "Event Safety Plan"ga o'xshash hujjatlarni ishlab chiqishni majburiy tartibda joriy etish;
- jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha politsiya xodimlari uchun alohida malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish.

Qisqacha aytganda, Buyuk Britaniyadagi ommaviy tadbirlarni boshqarish tizimidagi funksional iyerarxiya, jamoat bilan muloqotni institutsional darajada tashkil qilish, axborot aylanmasi va javobgarlik mexanizmlari – O'zbekiston amaliyotiga moslashtirilsa, ichki ishlar organlari faoliyatida sifat jihatidan o'sishga erishish mumkin.

Yaponiya va Janubiy Koreya Respublikasida ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash tizimi yuqori darajada texnologiyalashgan va tahlilga asoslangan mexanizmlarga suyanan. Ikki mamlakat ham xavf tahlillari va ssenariyli mashg'ulotlar orqali idoralararo muvofiqlashuvga erishgan.

Yaponiyada ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik "Disaster Preparedness Drill"¹⁰ va "Comprehensive Crisis Management System" (CCMS)¹¹ orqali amalga oshiriladi. Har bir tadbir oldidan ehtimoliy xavflarni baholash, ehtiyot choralari belgilovchi simulyatsiyali mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu jarayon Yaponiyaning Milliy Polis Agentligi (NPA), Favqulodda holatlar agentligi va mahalliy hokimiyatlar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

"Multi-Hazard Risk Assessment"¹² - ya'ni ko'p sohali xavf tahlili usuli bo'yicha tabiiy ofatlar, texnogen insidentlar, jinoyat xavfi, epidemiyalar va terrorchilik tahdidlari bir vaqtda tahlil

¹⁰ *Маълумот учун:* "Disaster Preparedness Drill" — Yaponiyada ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadigan amaliy mashg'ulotlar tizimidir. Ushbu mashg'ulotlar xavf tahlili natijalari asosida ssenariyli ravishda tashkil etilib, tabiiy ofatlar (zilzila, tofan), texnogen hodisalar, epidemiyalar va jamoat tartibsizliklari kabi holatlarga tayyorgarlikni qamrab oladi. Mazkur simulyatsiyalarning asosiy maqsadi — jamoat xavfsizligi uchun mas'ul barcha idoralarning — politsiya, yong'in xizmati, tibbiyot, sanitariya, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning — muvofiqlashtirilgan, avtomatlashtirilgan va tezkor harakat qobiliyatini oshirishdan iborat. Bu mashg'ulotlar Yaponiya Bosh vazirligi huzuridagi Cabinet Office tomonidan muvofiqlashtiriladi. Ushbu simulyatsiyalar ham davlat organlari, ham fuqarolar ishtirokida amalga oshiriladi. *O'zbekiston amaliyoti uchun foydasi:* Shu kabi mashg'ulotlar milliy darajada joriy qilinsa, ayniqsa ommaviy tadbirlar oldidan, favqulodda holatlarga tayyorgarlikni oshirishda, idoralar o'rtasida ishonchli aloqani shakllantirishda va aholining xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishda muhim samara beradi.

¹¹ *Ma'lumot uchun:* "Comprehensive Crisis Management System" (CCMS) esa Yaponiyaning falokatlarga tayyorgarlik va ularni boshqarishga doir institutsional elektron tizimi hisoblanadi. Uning tarkibiga hududiy va markaziy organlar ma'lumotlarini jamlash, tahlil qilish va qaror qabul qilishni avtomatlashtiruvchi axborot platformasi kiradi. CCMS orqali mahalliy hokimiyatlar, politsiya, NPA va sog'liqni saqlash tuzilmalari tezkor ravishda xavf tahlilini yuritish va muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi (Cabinet Office Japan, CCMS Overview Report, 2021).

¹² *Ma'lumot uchun:* "Multi-Hazard Risk Assessment" — "Multi-Hazard Risk Assessment" — bu ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda qo'llaniladigan ilmiy va amaliyotga yo'naltirilgan tahlil usuli bo'lib, bir vaqtning o'zida turli xavflar — tabiiy, texnogen, ijtimoiy, sanitar-epidemiologik, ekologik va jinoiy tahdidlarni kompleks tarzda baholashga xizmat qiladi. Uning asosiy jihatlari quyidagicha: *Ko'p omilli tahlil* – Ya'ni, xavflar izolyatsiyalangan holda emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi va ta'siri kontekstida tahlil qilinadi (masalan, zilzila natijasidagi yong'in yoki panika orqali yuzaga keluvchi tartibsizliklar). *Institutsional ishtirok* – Har bir tahdid turi uchun tegishli organ (politsiya, FVV, Sog'liqni saqlash, Ekologiya qo'mitasi va h.k.) tahlil uchun mas'ul hisoblanadi. *Tizimli integratsiya* – Har xil tahdidlar bo'yicha olingan ma'lumotlar maxsus markazlashgan axborot tizimida birlashtiriladi va tahlil qilinadi. Masalan, Yaponiyada bu CCMS, Koreyada IDIS tizimi orqali amalga oshiriladi. *Qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash* – Ushbu tahlillar asosida xavf darajalari belgilanadi va qaror qabul qiluvchi idoralarga (masalan, ichki ishlar organlariga) zarur taktik va strategik tavsiyalar beriladi. *Modellash va simulyatsiya* – Ko'p omilli tahlil asosida simulyatsiyali mashg'ulotlar uyushtiriladi. Bunda ehtimoliy xavflar bo'yicha ssenariylar tuziladi va amaliy harakatlar rejasi sinab ko'riladi.

qilinadi. Ushbu tahlillarning natijalari “Emergency Operations Centre”ga uzatiladi va u yerda real vaqtda boshqaruv mexanizmi ishga tushadi.

Janubiy Koreya Respublikasida “Smart Surveillance System” va “Safe Korea” platformalari ¹³ orqali ommaviy tadbirlarni monitoring qilish yo‘lga qo‘yilgan. Real-time ma’lumotlar, CCTV orqali kuzatuv, yuz tanish tizimlari va axborot tahlili orqali xavflar oldindan baholanadi (Ministry of the Interior and Safety, Korea, 2021).

Favqulodda vaziyatlarda Korea National Disaster Management Institute (NDMI) tomonidan “Integrated Disaster and Safety Management Information System” (IDIS) ¹⁴ orqali barcha idoralar faoliyati muvofiqlashtiriladi. Bu tizim politsiya, tibbiyot, yong‘in xizmati va sanitariya organlarini yagona raqamli platformada birlashtiradi.

O‘zbekistonda ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayoni asosan ichki ishlar organlari, Favqulodda vaziyatlar xizmati va sog‘liqni saqlash organlari o‘rtasidagi an‘anaviy hamkorlikka asoslangan. Biroq, xavf tahlilida ko‘p omilli yondashuv, real-time ma’lumotlar platformalari va avtomatlashtirilgan dispatcherlash sistemalari hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Yaponiya va Janubiy Koreya Respublikasi davlatlarining O‘zbekiston tajribasi uchun singdirish mumkin bo‘lgan ijobiy jihatlari:

- “Multi-Hazard Risk Assessment” usulini huquqiy asos bilan joriy etish va har bir ommaviy tadbir oldidan kompleks xavf tahlilini majburiylashtirish;
- Yaponiya va Koreyadagi kabi “Disaster Preparedness Simulation” treninglarini har yili muntazam o‘tkazish;
- “Smart Surveillance” texnologiyalaridan foydalanish — masalan, yuz tanish, real-time monitoring, axborot vizualizatsiya;
- favqulodda vaziyatlar boshqaruvi uchun yagona “Crisis Command and Coordination Platform” yaratish, u orqali barcha idoralar integratsiya qilinishini ta’minlash;

¹³ *Ma’lumot uchun: Smart Surveillance System* – “Aqlli kuzatuv tizimi” CCTV, AI asosidagi yuz tanish texnologiyalari, jamoat joylaridagi real-time monitoring va xavf tahlil mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Tizim Koreya Respublikasi Ichki ishlar va xavfsizlik vazirligi (Ministry of the Interior and Safety – MOIS) tomonidan nazorat qilinadi. Smart Surveillance tizimi doimiy ravishda ommaviy joylarda odam oqimini kuzatadi, shubhali harakatlarni aniqlaydi va zarur hollarda politsiya, tibbiyot yoki yong‘in xizmatiga avtomatik signal yuboradi. Bu tizim olimlar tomonidan “proactive risk detection” (faol xavfni oldindan aniqlash) modeli deb baholanadi (Kim & Park, Korea Safety Policy Review, 2021).

Safe Korea – Milliy xavfsizlik axborot portal. Bu platforma fuqarolar uchun ochiq bo‘lib, xavf haqidagi axborot, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha maslahatlar, evakuatsiya yo‘nalishlari, ob-havo va zilzila ogohlantirishlarini o‘z ichiga oladi. Shaxsiy qurilmalarga yuboriladigan SMS-xabarlar, mobil ilovalar, veb-xizmatlar orqali aholi real-time ma’lumot bilan ta’minlanadi. Hukumat ushbu platforma orqali ommaviy tadbirlar paytida aholining psixologik tayyorgarligini oshirish, ishonch va xavfsizlik hissi shakllantirishni maqsad qilgan (MOIS Report, 2020).

¹⁴ *Ma’lumot uchun: “Integrated Disaster and Safety Management Information System (IDIS)”* — Koreya Respublikasida favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va jamoat xavfsizligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan milliy raqamli platforma bo‘lib, barcha tegishli davlat idoralari — politsiya, yong‘in xizmati, tibbiyot, sanitariya va mahalliy hokimiyatlarni yagona axborot maydonida birlashtiradi.

IDIS tizimining asosiy vazifalari: *Ma’lumotlarni markazlashtirish* — barcha idoralar o‘z ma’lumotlarini real-time holatda IDISga yuborishadi; *Hamkorlikni muvofiqlashtirish* — idoralararo ishlarni sinxronlashtirish, vazifalar taqsimoti va faoliyat nazorati; *Havf tahlili* — tabiiy, texnogen va ijtimoiy xavflarni turli ma’lumotlar asosida avtomatik baholash; *Favqulodda vaziyatlarda avtomatik idoralash* — tezkor qaror qabul qilish, evakuatsiya yo‘nalishlari, resurs taqsimoti; *Ssenariyli mashg‘ulotlar* — ommaviy tadbirlar uchun turli xavf modellari asosida simulyatsiyali treninglar tashkil qilish.

- tadbirlarda foydalaniladigan ssenariy asosidagi harakat rejalarini ishlab chiqish va ularni muntazam yangilab borish.

Yaponiya va Koreya Respublikasidagi ommaviy tadbirlar xavfsizligiga oid tizimlar O'zbekiston uchun muhim metodologik va texnologik manba bo'lishi mumkin. Ulardan o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlar - bu ko'p omilli xavf tahlili, simulyatsiya asosidagi mashg'ulotlar, raqamli integratsiya va real-time boshqaruv platformalaridir. Ushbu usullar orqali ichki ishlar organlarining muvofiqlashtiruvchi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish mumkin.

Singapur va Fransiya jamoat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalar, institutsional integratsiya va favqulodda holatlarga tayyorgarlik sohasida ilg'or tajribaga ega.

Ushbu mamlakatlar xavf tahlili, favqulodda vaziyatlar rejalashtirish va idoralararo hamkorlik borasida O'zbekiston uchun muhim ilmiy-amaliy saboq bo'ladi.

Singapurda ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlashda Singapore Police Force (SPF), Civil Defence Force va Emergency Medical Services tuzilmalari integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Ular Singapore Ministry of Home Affairs (MHA) (Singapur Respublikasi Ichki ishlar vazirligi) boshchiligidagi harakat qiladi. Tadbirlarga tayyorgarlik jarayonida "Public Warning System"¹⁵ orqali tezkor axborot tarqatish, evakuatsiya ssenariylarini ishlab chiqish va real-time monitoring tizimlaridan foydalanish ta'minlanadi.

Maxsus "Total Defence" konsepsiyasi¹⁶ doirasida nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki sog'liqni saqlash, transport, kommunal xizmatlar, axborot texnologiyalari kabi sektorlar ham jalb qilinadi. Idoralar o'rtasida "Joint Operations Centre" orqali ma'lumot almashuvi va harakat muvofiqlashuvi ta'minlanadi. Singapurda avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, yuz tanish kameralari, dronlar orqali monitoring va favqulodda xabar berish tizimlari jamoat xavfsizligida muhim rol o'ynaydi.

¹⁵ *Ma'lumot uchun:* Public Warning System (PWS) — bu Singapurda fuqarolarni tezkor ravishda xatarlar haqida ogohlantirishga qaratilgan milliy miqyosdagi avtomatlashtirilgan axborot tarqatish tizimidir. U Singapore Civil Defence Force (SCDF) tomonidan boshqariladi va Singapore Ministry of Home Affairs (MHA) qoshida amalga oshiriladi.

PWSning asosiy xususiyatlari: *Sirenalar tarmog'i:* Butun mamlakat bo'ylab joylashtirilgan sirenalar orqali ovozli signallar berish. *Televizion va radio orqali ogohlantirish:* Davlat OAV va tijorat kanallari orqali maxsus xabarlar tarqatiladi. *SMS va mobil ilovalar orqali xabar berish:* MyResponder va SGSecure kabi ilova va platformalarda fuqarolarga joylashuviga qarab xabar yuboriladi. *Dron va kamera texnologiyalari:* Ma'sul idoralar voqea joylaridan monitoring olib borish va vaziyatni baholash uchun yuqori texnologiyalardan foydalanishadi. *Profilaktika va tayyorgarlik:* Doimiy ravishda aholi orasida simulyatsiya mashg'ulotlari va evakuatsiya repetitsiyalari o'tkaziladi.

¹⁶ *Ma'lumot uchun:* "Total Defence" konsepsiyasi — Singapur tomonidan milliy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan va butun jamiyatni qamrab oluvchi kompleks mudofaa strategiyasidir. U birinchi marta 1984 yilda joriy qilingan bo'lib, 6 asosiy yo'nalishdan iborat:

Harbiy mudofaa (Military Defence) – Armiya va politsiyaning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi tayyorgarligi.

Fuqarolik mudofaasi (Civil Defence) – Tabiiy ofatlar, yonginlar, texnogen halokatlar kabi holatlarda aholini himoya qilish. *Iqtisodiy mudofaa (Economic Defence)* – Strategik zaxiralar va barqaror iqtisodiy tizimni saqlash. *Ijtimoiy mudofaa (Social Defence)* – Millatlararo totuvlik, jamiyatda birdamlikni saqlash. *Psixologik mudofaa (Psychological Defence)* – Fuqarolarning vatanparvarlik hissi, yashash muhitida o'zini xavfsiz his etishi. *Sifrovaya mudofaa (Digital Defence)* – Kiber tahdidlar va axborot manipulyatsiyalariga qarshi choralar (2019 yildan joriy qilingan).

Ushbu konsepsiya ommaviy tadbirlar xavfsizligini ta'minlashda juda muhim ahamiyatga ega, chunki u: Har bir davlat organi, NNT, hatto fuqarolarning ham xavfsizlikdagi rolini belgilaydi; Institutsional hamkorlikni huquqiy va amaliy asosda yo'lga qo'yadi; Mashg'ulotlar, simulyatsiyalar va evakuatsiya repetitsiyalari orqali tayyorgarlikni mustahkamlaydi; Axborot xavfsizligini, ommaviy psixologiyani va ijtimoiy barqarorlikni qamrab oladi. (Singapore Civil Defence Force Report, 2021)

O'zbekiston amaliyotida ushbu modelning quyidagi jihatlarini joriy etish maqsadga muvofiq: milliy "Jamoaviy mudofaa" konsepsiyasini ishlab chiqish; barcha davlat organlari ishtirokidagi ssenariyli mashg'ulotlar; psixologik va axborot xavfsizligi bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirish ishlari; axborot platformalari orqali jamoaviy tayyorgarlikni oshirish.

Fransiyada ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash asosan Gendarmerie Nationale va Police Nationale organlari tomonidan amalga oshiriladi. Ularga hududiy ma'muriyatlar, favqulodda vaziyatlar xizmati (Sécurité Civile) va sog'liqni saqlash tuzilmalari qo'shiladi. Fransiya ichki ishlar vazirligi tomonidan maxsus "Plan ORSEC" (Organisation de la Réponse de Sécurité Civile)¹⁷ rejasi qabul qilingan bo'lib, u har bir tadbir uchun evakuatsiya, terrorga qarshi kurash, favqulodda holat va jamoat bilan ishlash ssenariylarini qamrab oladi.

Fransiyaning mazkur ijobiy tajribasini milliy amaliyotga singdirish quyidagilarga zamin yaratadi:

-qonunlashtirilgan ssenariy rejalari: O'zbekistonda ommaviy tadbirlarda qo'llanadigan harakat ssenariylari "Plan ORSEC"ga o'xshash holda qonuniy asosda belgilanishi kerak. Bu barcha idoralar mas'uliyatini ravshanlashtiradi;

hududiy shtablarni institutsionallashtirish: har bir viloyat va shahar darajasida avtomatik faoliyat boshlaydigan shtablar tashkil qilish ("krizis markazi" modeli);

idoralararo favqulodda muvofiqlashtirish mexanizmi: tadbir paytida IIV, Sog'liqni saqlash, FVV, sanitariya organlari, Mudofaa va Milliy gvardiya o'rtasida taktik hamkorlikni ta'minlovchi yagona reja.

jamoat bilan ishlash strategiyasi: PWS (Public Warning System) kabi tezkor axborot platformalar orqali aholini xabardor qilish tizimini ORSEC asosida muvofiqlashtirish.

Fransiyada xavfsizlikni ta'minlashda jamoatchilik ishtirokini ham nazarda tutuvchi "Vigipirate" terrorizmga qarshi davlat dasturi amal qiladi. Bu tizim xavf darajasiga qarab chora-tadbirlarni avtomatik boshqarishni nazarda tutadi. Shuningdek, Fransiya politsiyasi tadbirlar oldidan ko'p ssenariyli simulyatsiyali mashg'ulotlar o'tkazadi.

O'zbekistonda ham ichki ishlar organlari, FVV, Sog'liqni saqlash tizimi, Milliy gvardiya va mahalliy hokimiyatlar jamoat xavfsizligi uchun mas'ul. Biroq, Singapur va Fransiyadagi kabi institutsional integratsiya, raqamli tizimlar va avtomatik idoralash mexanizmlari hali yetarli darajada emas. Shu bois, ushbu mamlakatlardan olinishi mumkin bo'lgan ijobiy jihatlar quyidagilar:

¹⁷ *Ma'lumot uchun:* Plan ORSEC (Organisation de la Réponse de Sécurité Civile) – Fransiyada har qanday turdagi katta miqyosli ofatlar, ommaviy tadbirlar, texnogen yoki tabiiy favqulodda vaziyatlarga javob qaytarish uchun ishlab chiqilgan milliy va hududiy miqyosdagi funksional rejadir. U Fransiyaning Ichki ishlar vazirligi (Ministère de l'Intérieur) tomonidan 2004-yildan boshlab amalga joriy etilgan va muntazam yangilanib turadi. *Asosiy vazifalari:* barcha ishtirokchi tuzilmalar uchun qonunan belgilangan harakat algoritmlarini yaratish; odamlarni evakuatsiya qilish, tibbiy yordam ko'rsatish, yong'in xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish; har bir hudud uchun maxsus ssenariy va mahalliy mobilizatsiya resurslarini aniqlash; ommaviy axborot vositalari va jamoat bilan aloqa qilish tartibini belgilash; tezkor shtablar – "PC de crise" (Krizis holatlar bo'yicha boshqaruv markazlari) tashkil etish. *Amalda qo'llanilishi:* sport musobaqalari (Evro-2024 kabi), namoyishlar, bayram tadbirlari oldidan ssenariyli mashg'ulotlar; ssenariylar "Plan Blanc" (tibbiyot muassasalari), "Plan Rouge" (ommaviy qurbonlar holati), "Plan Alpha" (transport xatarlari) kabi qo'shimcha idoraviy rejalar bilan integratsiya qilinadi; har bir hududiy prefekt ushbu rejani ishlab chiqish va bajarilishini nazorat qiladi. (Ministère de l'Intérieur, France, 2021)

-Singapur tajribasi asosida “Public Warning System” kabi avtomatik xabar tizimlarini joriy etish;

-“Joint Operations Centre” tipida yagona favqulodda holat boshqaruv markazini shakllantirish;

-Total Defence konsepsiyasi asosida ko‘p idorali tayyorgarlik mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish.

-Fransiya tajribasi asosida “Plan ORSEC”ga o‘xshash holda tadbirlarga doir harakatlar ssenariylarini qonuniy asosda tartibga solish;

-“Vigipirate” modeliga mos xavf darajalari tizimini joriy etish;

-ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, FVV, sanitariya va tibbiy xizmatlar o‘rtasida simulyatsiyali mashg‘ulotlarni muntazam o‘tkazish.

Singapur va Fransiya davlatlaridagi tizimlardan olinishi mumkin bo‘lgan asosiy saboq – bu ko‘p darajali xavf tahlili, avtomatik xabar tizimlari, institutsional hamkorlik markazlari va jamoatchilikni faol jalb qilishdir. O‘zbekistonda ichki ishlar organlari uchun bunday yondashuvlar strategik va texnologik imkoniyatlarni kengaytirish bilan bir qatorda, samarali va ishonchli xavfsizlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks va bosqichma-bosqich tashkil etilgan tizimga ega. Bu sohada boshqaruv, huquqiy asoslar va idoralararo hamkorlik “O massovix meropriyatiyax” turkumiga kiruvchi turli hujjatlar, IIV va Rosgvardiya normativlariga asoslangan. Jumladan, IIV va Rosgvardiya (Rosgvardiya – Federal gvardiya xizmati) tadbirlar xavfsizligi uchun mas‘ul asosiy organlar hisoblanadi. Ular mahalliy hokimiyatlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi (MCHS), sanitariya va tibbiy xizmatlar bilan uzviy hamkorlikda ish olib borishadi.

Rossiyada har qanday yirik tadbir oldidan “operativ ssenariy” ishlab chiqiladi va u asosida simulyatsiyali mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Masalan, futbol chempionatlari, saylovlar, ommaviy madaniy yoki siyosiy yig‘ilishlar oldidan politsiya, Rosgvardiya, FVM va tibbiy xizmatlar ishtirokida amaliy treninglar tashkil etiladi. Bu jarayonda “yedinoy dejurno-dispetcherskoy slujbi” – ya‘ni yagona navbatchi-dispetcher xizmati orqali ma‘lumotlar almashinuvi ta‘minlanadi.

Qonunchilik nuqtayi nazardan, Rossiyada “O politsii” federal qonuni, “O grajdanskoy oborone” hamda “O chrezvichaynix situatsiyax” to‘g‘risidagi qonunlar¹⁸ favqulodda vaziyatlarda davlat organlari va mahalliy tuzilmalarning vazifalarini belgilab beradi. Bundan tashqari, IIV buyruqlari asosida tadbirlarga oid maxsus taktik rejalar ishlab chiqiladi va har bir hududiy organ ushbu rejalariga muvofiq harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, FVV, Sog‘liqni saqlash, sanitariya xizmatlari va mahalliy hokimiyatlar jamoat xavfsizligini ta‘minlash uchun mas‘ul. Biroq Rossiyadagi tajribadagi kabi simulyatsiyali mashg‘ulotlar, ssenariy asosidagi tayyorgarlik va yagona axborot dispetcherlik tizimi joriy etish hanuzcha to‘liq amaliyotga aylanmagan.

Turkiya Respublikasida ommaviy tadbirlarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash masalasi Ichki ishlar vazirligi, Turkiya Milliy politsiyasi (Emniyet Genel Müdürlüğü), Jandarmeriya

¹⁸ Federalniy zakon ot 07.02.2011 N 3-FZ “O politsii”. Federalniy zakon ot 21.12.1994 N 68-FZ “O zashchite naseleniya i territoriy ot chrezvichaynix situatsiy” // <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

General qo'mondonligi (Jandarma Genel Komutanlığı), Favqulodda vaziyatlar boshqaruvi agentligi (AFAD) va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida markazlashgan va hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

AFAD ¹⁹ Turkiyada favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi yetakchi organ bo'lib, ommaviy tadbirlar uchun xavf tahlili, simulyatsiya mashg'ulotlari va favqulodda reaksiya rejalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. AFAD "Bütünleşik Afet Yönetimi Sistemi" (Integratsiyalashgan favqulodda vaziyatlar boshqaruvi tizimi) orqali turli idoralar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida Turkiyada "Risk Bazlı Güvenlik Planlaması" – xavfga asoslangan xavfsizlik rejalashtirish konsepsiyasi qo'llaniladi. Bu model ommaviy tadbirlarning turi, joyi, ishtirokchilar soni va tahdid darajasini baholab, politsiya, jandarmeriya va tibbiy xizmatlar o'rtasida harakatlarni muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Har bir tadbir uchun maxsus "Güvenlik Planı" (Xavfsizlik rejasi) tuziladi.

Turkiya politsiyasi tomonidan yirik tadbirlar davomida dronlar, intellektual videokuzatuv tizimlari va raqamli aloqa vositalari faol qo'llaniladi. Tadbirlar oldidan "Hazırlık Tatbikatları" (Tayyorgarlik mashg'ulotlari) o'tkaziladi, bu esa tezkor javob berish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, mahalliy hokimiyat va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda aholiga yo'naltirilgan ma'lumot kampaniyalari tashkil etiladi.

O'zbekistonda ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va boshqa tuzilmalar ham ommaviy tadbirlar xavfsizligi uchun mas'ul. Biroq Turkiya tajribasidan kelib chiqib, quyidagi ijobiy jihatlarni milliy amaliyotga tatbiq etish mumkin:

- favqulodda holatlar va xavf tahlilini idoralararo muvofiqlashtirish maqsadida AFAD kabi markazlashgan tahlil va muvofiqlashtiruvchi agentlikni joriy etish.
- jandarmeriya, politsiya, tibbiyot va hokimiyat idoralari o'rtasida axborot almashinuvini avtomatlashtirish uchun Integratsiyalashgan raqamli platforma yaratish.
- har bir tadbir uchun individual tahlil va xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish.
- real vaqtda monitoring va xavfli vaziyatlarni oldindan aniqlash uchun dron va smart kuzatuv texnologiyalarini keng joriy etish.

Xorijiy davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, ommaviy tadbirlarda xavfsizlikni ta'minlash nafaqat huquqni muhofaza qilish, balki strategik rejalashtirish, texnologiya, jamoatchilik ishtirokini qamrab olgan ko'p qirrali jarayondir. O'zbekistonda ham ushbu modellardan xulosa chiqarib, milliy tizimni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹⁹ <https://www.afad.gov.tr>.